

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### MUSTAQILLIK NE'MATI

*Otaboyev Raxmatjon,*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, yurisprudensiya  
yo'nalishi, 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada mustaqillik haqida tushunchalarimni, Yurtimizni mustaqillikka erishgani, mustaqil davlat sifatida o'z belgilariga ega bo'lib, fuqarolar huquq erkinliklarini kafolatlagan, suverenitetiga ega bo'lgan shuningdek boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy mustaqillikni ta'minlagan O'zbekiston haqida bilganlarimni bayon etish maqsadida shu maqolaga qo'l urdim. Bundan maqsad o'z tengdoshlarim va boshqalarga tinchlik, osoyishtalik va kindik qonimiz to'kilgan ona vatanimiz hech qaysi davlatdan kam emasligi, har birimiz tinchligimizni ta'minlash davlatimiz oliy maqsadi ekanligini anglagan holda, shu yurtimizga munosib xalqparvar, komil inson bo'lib yetishishni anglatishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Mustaqillik, deklaratsiya, davlat, kengash, tashkilot, suverenitet, ramz, qonun, subekt.

**Annotation:** In this article, I will explain my understanding of independence, the political, economic, and social independence of our country, which has achieved independence, has its own characteristics as an independent state, guaranteed the rights and freedoms of citizens, has sovereignty, and established relations with other countries. I wrote this article in order to explain what I know about Uzbekistan. The purpose of this is to convey to my peers and others that peace, tranquility, and that our motherland, where our navel blood was shed, is no less than any other country, and that each of us realizes that the highest goal of our country is to ensure peace, and to grow up to be a people-loving, perfect person worthy of this country. consists of

**Key words:** Independence, declaration, state, council, organization, sovereignty, symbol, law, subject.

**Аннотация:** В этой статье я объясню свое понимание независимости, политической, экономической и социальной независимости нашей страны, которая достигла независимости, имеет свои особенности как независимое государство, гарантирует права и свободы граждан, обладает суверенитетом. и наладил отношения с другими странами. Я написал эту статью, чтобы объяснить, что я знаю об Узбекистане. Цель этого – донести до моих сверстников и других, что мир, спокойствие и что наша Родина, где проливалась наша пупочная кровь, не меньше, чем любая другая страна, и что каждый из нас осознает, что высшая цель нашей страны состоит в том, чтобы обеспечить мир и вырасти любящим людей, совершенным человеком, достойным этой страны.

**Ключевые слова:** Независимость, декларация, государство, совет, организация, суверенитет, символ, закон, субъект.

Mustaqillik - bu soʻz kundalik hayotimizda ishlatadigan koʻp bora eshitadigan oddiy bir soʻzlarimizdan biri sifatida qaraymiz. Aslidachi? “Bu soʻz mazmun- mohiyati nimadan iborat?” degan savol tugʻilishi tabiiy. Mustaqillik soʻziga taʼrif beradigan boʻlsak - bu bir davlat yoki millatni boshqa davlat yoki xalqdan mustaqil holda oʻz boshqaruvini, siyosatini, iqtisodiyotini oʻzi boshqarish imkoniyatiga ega boʻlishdir. Bu tushuncha faqat davlatga nisbatan ishlatilibgina qolmay, shaxsiy erkinlik, oʻz-oʻzini anglash anglash va erkin harakatlanish kabi shaxsiy tushunchalarga nisbatan ham ishlatilinishi mumkin. Mustaqillik deklaratsiyasi - mustaqillikni taminlovchi asosiy hujjatdir yaʼni bu deklaratsiya orqali biror xalq yokida millatlarni boshqa davlat tasarrufidan ajralib chiqishini, oʻz siyosiy mustaqilligini tan olishini bildiradi. Deklaratsiya odatda mustaqil boʻlish oʻz haq huquqlariga ega boʻlish uchun tuziladi hamda xalqaro hamjamiyatlar, tashkilotlar va davlatlar tan olinishi uchun eʼlon qilinadi. Oʻzbekistonning mustaqillik deklaratsiyasi 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan. Bu hujjat orqali Oʻzbekiston oʻzining davlat suverenitetini eʼlon qildi va sobiq SSSR tarkibidan chiqib, mustaqil davlat sifatida rivojlanish yoʻlini tanladi. 1991-yilda 1-sentyabr mustaqillikka erishilgan kun sifatida butun xalqimiz tomonidan keng miqyosda nishonlaniladi. Bu sana xalqimiz uchun rivojlanishning muhim nuqtalaridan biri boʻlib, huquq va erkinliklarimizni erkin amalga oshirish, oʻz qadriyatlarimiz va milliy anʼanalarimizning kurtak ochib yanada rivijlanishi, taraqqiy etishi uchun asosiy boʻgʻin roʻlini oʻynagan. Bu Deklaratsiya asosiy qonunimiz qabul qilinguncha muhim manba sifatida qaralgan va 1992 yil 8-dekabr Oliy kengashning 12-chaqiriq, 11-sessiyasida asosiy qonunimiz boʻlmish konstitutsiyamiz qabul qilindi. Koʻp oʻtmay davlatimizning mustaqilligini, tarixini, madaniyatini va xalqimizning birligini ifoda etish, davlatimizni ichki va tashqi maydonda tanitish, xalqimizning milliy gʻurur va oʻziga xosligini namoyish etish maqsadida davlatimizning ramzlari bayrogʻi 1991-yil 18-noyabrda, gerbi 1992-yil 2-iyulda va madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilinishi davlatimizni xalqaro huquqning teng huquqli subekti sifatida qatnashgan holda boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarga kirishishni taʼminladi. Natijada davlatimiz 1991-yilda MDH ( mustaqil davlatlar hamdoʻstligi)ga, 1992-BMT (birlashgan millatlar tashkiloti)ga, 2001-yili esa SHHT (Shanhay hamkorlik tashkiloti)ga va koʻplab xalqaro tashkilotlarga aʼzo boʻlgan. mustaqillik haqida qancha gapirsak ham oz va imkoniyatlari cheksizdir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov oʻzining “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarida mustaqillikni xalq uchun hayot-mamot masalasi sifatida taʼriflagan [2]. Islom Karimov mustaqillikni katta javobgarlik va kurash bilan bogʻlaydi, bu faqat siyosiy mustaqillikka erishish bilan bogʻliq boʻlibgina qolmay, balki xalqni iqtisodiy va madaniy erkinlikka erishishi uchun asosiy omil vazifasini bajargan. Islom Karimovning bu asarida mustaqillik sari qadam tashlagan Oʻzbekistonning oʻz anʼanalari-yu yoʻli va qarashlari bilan yangi davlat sifatida shakllanishi, iqtisodiy farovonligi, milliy qadriyatlar tiklanishi kabi mavzular yoritiladi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan beri uni saqlab qolish va mustahkamlash uhn koʻplab islohotlar amalga oshirildi. Hokimiyatimiz kuchli parlament, ijro hokimiyatiga ega boʻlish, saylov tizimini takomillashtirilishi, demokratik boshqaruv, sovet davridan qolgan markazlashgan iqtisodiy modeldan voz kechib, bozor iqtisodiyotiga oʻtish, xususiylashtirish jarayonlari, qonun ustuvorligini taʼminlash, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqilishi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oʻzbek tilini davlat tili sifatida mustahkamlanishi yurtimiz mustaqilligini va ildam qadamlar bilan rivojlanayotganligini yaqqol isbotidir.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, davlatimiz mustaqilligi, ota-onamiz, aka-ukamiz, opa-singillarimiz, doʻstlarimizni qisqacha qilib aytadigan boʻlsak xalq tinchiligining garovidir. Bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor. Bu – bizning tariximiz, qadriyat va anʼanalarimiz, urf-odatlarimiz, milliy oʻzligimizdir. Men ana shu teran ildizlarimizda yurtini,

millatni birlashtiradigan buyuk bir g'oyani [2] ona vatanimizni, musaffo osmon-u tinchligimiz va mustaqilligimiz, milliy qadriyatlarimizni, jahonda o'z o'rniga ega bo'lgan tariximizni e'zozlash, qadriga yetish har birimizning vazifamiz va muqaddas burchimiz hisoblanadi. Tinchlik-bu oliy ne'mat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: mustaqillikka oid qonunlarni asliga qarab chiqib ozroq qo'shing.**

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: "O'zbekiston", 2011.

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti", 2000-yil, -839 B.

4. O'zbekiston Respublikasi saylov kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019-y., 03/19/544/3337-son; 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son

5. "Harakatlar Strategiyasi 2017-2021" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni Lex.uz. 2017.

6. "Yangi O'zbekiston strategiyasi 2022-2026" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni Lex.uz. 2022.